

YUQORI SINIF O'QUVCHILARIDA KASB TANLASH MOTIVATSIYASI SHAKLLANISHINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLARI

Berdimuratova Feruza Zafarjon qizi

Toshkent gumanitar fanlar universiteti,

Pedagogika mutaxassisligi 1-kurs magistranti

berdimuratovaferuza17@gmail.com

ANNOTATSIYA

Quyidagi maqolada yuqori sinf o'quvchilarida kasb tanlash motivatsiyasining shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar – oila muhiti, tengdoshlar guruhi, ta'lim muassasasi va shaxsiy-psixologik xususiyatlar – keng tahlil qilinadi. Ushbu omillarning kasbiy yo'nalganlik, qiziqish va qaror qabul qilish jarayoniga ta'siri ko'rib chiqiladi. O'tkazilgan kuzatishlar va nazariy tahlillar asosida maktablarda kasbga yo'naltirish ishlarini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Kalit so'zlar: *kasb tanlash motivatsiyasi, ijtimoiy-psixologik omillar, yuqori sinf o'quvchilari, kasbiy yo'nalganlik, ichki motivatsiya, oila ta'siri, tengdoshlar guruhi, maktab va o'qituvchi.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье широко анализируются социально-психологические факторы, влияющие на формирование мотивации профессионального выбора у старшеклассников: семейная среда, группа сверстников, учебное заведение и личностно-психологические особенности. Рассматривается влияние этих факторов на профессиональную направленность, интересы и процесс принятия решений. На основе наблюдений и теоретического анализа разработаны практические рекомендации по совершенствованию профориентационной работы в школах.

Ключевые слова: *мотивация профессионального выбора, социально-психологические факторы, старшеклассники, профессиональная направленность, внутренняя мотивация, влияние семьи, группа сверстников.*

ABSTRACT

This article broadly analyzes the socio-psychological factors that influence the formation of career choice motivation among upper secondary school students, including family environment, peer group, educational institution, and personal-psychological characteristics. The influence of these factors on professional

orientation, interests, and decision-making processes is examined. Based on observations and theoretical analysis, practical recommendations for improving career guidance work in schools have been developed.

Keywords: *career choice motivation, socio-psychological factors, upper secondary school students, professional orientation, intrinsic motivation, family influence, peer group.*

KIRISH

Shaxsning hayot yo'lini belgilovchi muhim omillardan biri bu – kasb tanlash. Bu qaror nafaqat shaxsning iqtisodiy ahvoli, balki uning ruhiy farovonligi, ijtimoiy mavqei va umuman hayotiy qoniqishini belgilab beradi. Biroq ko'pchilik yuqori sinf o'quvchilari maktabni tugatayotgan vaqtda o'zlari uchun to'g'ri kasbni tanlay olishda qiynaladi. Ayrimlari ota-ona xohishiga ko'ra, boshqalari do'stlari bilan birga yoki shunchaki tasodif tufayli yo'nalish tanlaydi. Natijada ko'p yoshlar o'qishga kirib, bir-ikki yildan so'ng tanlagan kasblariga qiziqish sezmaydi va o'ziga bo'lgan ishonchi pasayib, umidsizlikka tushadi.

Bunday holatlarning oldini olish uchun kasb tanlash motivatsiyasining shakllanish mexanizmlarini, unga ta'sir qiluvchi omillarni chuqur o'rganish zarur. Xususan, ijtimoiy muhit – oila, do'stlar, maktab – o'smirning kasbiy tasavvurlarini qay tarzda shakllantiradi? Shu bilan birga shaxsning o'zidagi ichki xususiyatlar – temperament, qiziqishlar, qobiliyatlar – kasb tanlashda qanday rol o'ynaydi? Mana shular mazkur tadqiqotning asosiy savollari hisoblanadi.

Bugungi kunda bu masalalarga xorijiy davlatlarda dolzarb yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. OECDning ma'lumotlariga ko'ra, 15 yoshli o'quvchilarning yarmidan ko'pi kelajak kasbi haqida real tasavvurga ega emas [1]. O'zbekistonda esa "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida maktab bitiruvchilarini kasb va hunar egallab chiqishiga alohida urg'u berilmoqda [2]. Bu esa mazkur mavzuning bugungi kunda ham ilmiy, ham amaliy jihatdan naqadar dolzarb ekanini ko'rsatadi.

"Motivatsiya" atamasi lotincha "movere" – harakatlantirmoq so'zidan olingan bo'lib, shaxsni ma'lum bir faoliyatga undovchi ichki kuch sifatida ta'riflanadi. Kasb tanlash motivatsiyasi esa, xususan, shaxsni muayyan kasbni tanlashga, unga intilishga va bu sohada o'zini rivojlantirishga undovchi motivlar, ehtiyojlar, qiziqishlar va qadriyatlar majmuidan iboratdir.

Mashhur psixologlar E. Deci va R. Ryan o'zlarining o'z-o'zini belgilash nazariyasida motivatsiyani ikki turga ajratadilar: ichki (intrinsic) va tashqi (extrinsic) motivatsiya [3]. Ichki motivatsiya shaxsning faoliyatga o'zi qiziqishi, zavq olishi va o'z-o'zini rivojlantirish istagi asosida shakllanadi. Tashqi motivatsiya esa moddiy

mukofot, ijtimoiy tan olinish yoki jazodan qo'rqish kabi tashqi omillar ta'sirida yuzaga keladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kasb tanlashda ichki motivatsiyasi ustun bo'lgan o'quvchilar tanlagan kasblarida ancha muvaffaqiyatli bo'ladi, qiyinchiliklarga bardoshli keladi va ish faoliyatidan ko'proq qoniqish his etadi [4]. Shu bois maktabdagi kasbga yo'naltirish ishlarining asosiy vazifalaridan biri – o'quvchilarda tashqi motivlardan ichki motivlarga o'tishni ta'minlashdir.

Rus psixologi E.A. Klimov esa kasb tanlashni murakkab, ko'p bosqichli va uzoq davom etadigan jarayon sifatida ko'rib, o'quvchilarni besh turga – "inson-tabiat", "inson-texnika", "inson-inson", "inson-belgilar tizimi" va "inson-badiiy obraz" – bo'lib tahlil qiladi [5]. Uning tipologiyasi o'quvchining ichki moyilligini aniqlashda bugungi kunda ham keng qo'llaniladi.

2.1. Oila muhiti

Oila – o'smirning kasbiy tasavvurlarini shakllantirishda eng birinchi va eng ta'sirchan muhit. Ota-onaning kasbi, ma'lumot darajasi, dunyoqarashi va farzandga bo'lgan munosabati o'quvchining kelajakdagi yo'nalishi haqida tasavvur hosil qilishida asosiy ro'l o'ynaydi. Ko'p oilalarda "kasblar ierarxiyasi" mavjud: ba'zi kasblar obro'li, ba'zilari esa unchalik qadrli emas deb hisoblanadi. O'quvchi ko'pincha ushbu oilaviy stereotiplar ta'sirida o'sadi va kasb tanlashda ham shunga asoslanadi.

Tadqiqotlar ko'rsatadiki, ota-onasi farzandining qiziqishlarini qo'llab-quvvatlagan oilalardagi o'quvchilar mustaqilroq va ongliroq kasb tanlaydi [6]. Aksincha, ota-ona bosimi ostida kasb tanlaganlar keyinchalik kasblaridan qoniqmaslik, motivatsiyasizlik va hatto depressiv holatlarni boshdan kechiradi. Bu o'rinda ota-ona va farzand o'rtasidagi ochiq muloqot, farzandning fikriga hurmat – kasbiy motivatsiyani to'g'ri shakllantirishning asosiy shartidir.

2.2. Tengdoshlar guruhi ta'siri

O'quvchi kasb tanlash jarayonida – tengdoshlar fikrini ota-ona ta'siridan ko'ra kuchliroq bo'la boshlagan davridir. Bu vaziyatda o'quvchi "men qaysi kasbni tanlasam ekan" savoliga javob izlayotganda ko'pincha do'stlari va sinfdoshlarining tanlovlaridan ilhomlanib tanlashga harakat qiladi.

L.S. Vygotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi bu jarayonni tushuntirishda muhim asos bo'ladi: o'quvchi tengdoshlar bilan o'zaro munosabat jarayonida yangi bilimlar, tajribalar va yo'nalishlarga ochiladi [7]. Shunday bo'lsa-da, ba'zida moda ortidan quvishish yoki obro' orttirish istagi o'quvchilarni o'zi uchun mos bo'lmagan kasbni tanlashiga olib kelishi mumkin.

2.3. Maktab va o'qituvchilar ta'siri

Maktab va o'qituvchilar o'quvchini o'z qobiliyatlarini, istidodlarini namoyon qilishlari va kasbiy qiziqishlarini kashf etishlari uchun zamin bo'ladigan ijtimoiy maydon hisoblanadi. O'qituvchining shaxsiyati, dunyoqarashi va uning darsni qiziqarli tashkil etishi, o'quvchiga bo'lgan e'tibori – o'sha fan orqali kasb tanlashiga bevosita ta'sir ko'rsatishi haqida ko'plab misollar bor.

Biroq maktabdagi rasmiy kasbga yo'naltirish ishlari ko'pincha yetarlicha samarali bo'lmaydi. Karyera maslahatchilarining yetishmasligi, yo'naltirish dasturlarining eskirganligi, haqiqiy kasbiy muhitdan uzoqligi – bu kamchiliklar o'quvchilarning kasblar haqida yuzaki tasavvurga ega bo'lib qolishiga olib keladi. Sifatli kasbga yo'naltirish ishlarini yo'lga qo'ygan maktablarda esa o'quvchilarning ongli kasb tanlash ko'rsatkichi sezilarli darajada yuqori bo'lishi kuzatilgan [8].

2.4. Shaxsiy-psixologik xususiyatlar

Ijtimoiy muhit omillaridan tashqari kasb tanlashda o'quvchining o'zi faol ishtirok etadi. Kasb tanlashga: temperament, xarakter, qobiliyatlar, qiziqishlar tizimi va o'z-o'zini baholash darajasi kabilar bevosita ta'sir qiladi. Masalan, ijtimoiy-kommunikativ qobiliyatlari yuqori bo'lgan o'quvchi tabiiyki "inson-inson" tizimidagi kasblarga ko'proq moyil bo'ladi.

O'z-o'zini baholash (self-esteem) darajasi ham kasb tanlashda muhim o'rin tutadi. O'ziga ishonchi past bo'lgan o'quvchilar ko'pincha qobiliyatlaridan past kasb tanlab, imkoniyatlarini cheklaydi. Aksincha, o'z kuchiga ishongan, o'zini to'g'ri baholay oladigan o'quvchilar qiyinroq va mas'uliyatliroq kasblarga dadil intiladi. Shu sababli maktab psixologlari o'quvchilarning o'z-o'zini bilishini va o'ziga ishonchini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratishi lozim [9].

Ushbu maqolada keltirilgan omillarning barchasi yakka holatda emas, balki o'zaro chambarchas bog'liqlikda kasb tanlash jarayonidagi motivatsiyani shakllantirishga ta'sir qiladi. Oiladagi muhit juda ijobiy bo'lsa ham, ammo maktabdagi faoliyatda kasbga yo'naltirish ishlari yetarli bo'lmasa – yakuniy natija salbiy bo'lishi mumkin. Demak, barcha omillarning uyg'un va muvofiqlashtirilgan holda ishlashi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Tashqi ijtimoiy omillar bilan ichki psixologik omillar o'rtasidagi muvozanat kasb tanlash motivatsiyasini sifatini belgilaydi. Agar o'quvchi ijtimoiy muhit ta'sirida o'z ichki qiziqishlari va qobiliyati bilan uyg'unlashtirib, shaxsiy sintez asosida tanlov qila olsa – bu eng maqbul holat hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari va nazariy tahlillar asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

Maktab psixologlari uchun: o'quvchilar qiziqishi, qobiliyati va temperamentini aniqlashga qaratilgan kompleks diagnostika tizim joriy etish; individual psixologik

maslahat mashg'ulotlarini muntazam o'tkazish; o'z-o'zini bilishga va o'z ishonchni rivojlantirishga qaratilgan treninglar tashkil etish.

O'qituvchilar uchun: barcha fanlar doirasida kasbiy imkoniyatlarni ko'rsatuvchi amaliy misollar keltirish; o'quvchilarni mutaxassislar bilan uchrashuvlarga olib borish; loyiha faoliyati orqali o'quvchilarda muayyan sohalarga qiziqish uyg'otish.

Ota-onalar uchun: farzandlarining kasbiy qiziqishlarini inobatga olib, kuzatib va qo'llab-quvvatlash; kasbiy yo'li va tajribasi bo'yicha ochiq suhbatlar o'tkazish; farzandlarning kasbiy tanlovini ularning qiziqishlari va qobiliyatlari asosida birgalikda muhokama qilish.

Tizim darajasida: maktablarda kasbga yo'naltirish sohasida maxsus tayyorlangan mutaxassislarni jalb etish; o'quv dasturlariga zamonaviy kasblar haqida dolzarb ma'lumotlar kiritish; stajirovkalar, mentorlik dasturlari va "real kasblar" ko'rgazmalarini tashkil etish.

XULOSA

Yuqori sinf o'quvchilarida kasb tanlash motivatsiyasining shakllanishi – bu bir martalik harakat emas, balki uzoq davom etadigan, ko'p omilli va murakkab jarayon. Oila muhiti, maktab ta'siri, tengdoshlar guruhi va o'quvchining shaxsiy-psixologik xususiyatlari – bularning barchasi o'zaro ta'sirda kasbiy motivatsiyasining asosini yaratadi.

Eng muhimi – kasb tanlash motivatsiyasining ichki (intrinsic) asosda qurilishi. Agar o'quvchilar kasblarini tashqi bosim yoki tasodiflar bilan emas, balki qiziqish va ishonchlari, qobiliyatlari va hayotiy qadriyatlarini tushunib tanlasalar – bu nafaqat ularning shaxsiy baxtiga, balki jamiyatning yuksalishiga ham xizmat qiladi. Maktab, o'qituvchi, oila va davlat siyosatining uyg'un hamkorligi esa buning uchun zarur zaminni yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. OECD. Career Readiness: Students' Voices and Visions. – Paris: OECD Publishing, 2021. – 84 p.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-158-son Farmoni. "O'zbekiston – 2030" taraqqiyot strategiyasi. 11.09.2023. – <https://lex.uz/docs/6600413>
3. Deci E.L., Ryan R.M. Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior. – New York: Plenum Press, 1985. – 371 p.
4. Ryan R.M., Deci E.L. Self-Determination Theory: Basic Psychological Needs in Motivation, Development, and Wellness. – New York: Guilford Press, 2017. – 756 p.

5. Klimov E.A. Psixologiya professionalnogo samoopredeleniya. – Moskva: Akademiya, 2004. – 304 s.
6. Hartung P.J., Porfeli E.J., Vondracek F.W. Child Vocational Development: A Review and Reconsideration // Journal of Vocational Behavior. – 2005. – Vol. 66. – P. 385–419.
7. Sultanova M. Maktabda kasbga yo‘naltirish ishlarining samaradorligi // Ta’lim va tarbiya. – Toshkent, 2022. – №3. – B. 45–52.
8. Baumeister R.F., Vohs K.D. Self-Esteem, Self-Presentation, and Future Interaction // Journal of Personality. – 1993. – Vol. 61. – P. 322–344.
9. Holland J.L. Making Vocational Choices: A Theory of Vocational Personalities and Work Environments. 3rd ed. – Odessa: Psychological Assessment Resources, 1997. – 303 p.